

TURKISTONDA O`TKAZILADIGAN KO`RGAZMA HAMDA YARMARKALARNING DASTUR VA QOIDALARI XUSUSIDA (XIX ASR OXIRI -XX ASR BOSHLARI)

J. X. Arziqulov,
NavDPI o`qituvchi

Annatatsiya

Mazkur maqolada 1913 yil Turkistonda o`tkazilgan ko`rgazma-yarmarka misolida ko`rgazma-yarmarka o`tkazishning dasturi va qoidalari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Tayanch atamalar: ko`rgazma, yarmarka, qoida, dastur, bo`lim, rasta, meva, sabzavot, meneral o`g`itlar, mashina, texnika, komitet, mukofot, donli ekinlar, asalarichilik, ko`chat, ko`chatxona, paxta urug`i, gulchilik, manzarali daraxt, urug`chilik, qishloq xo`jaligi.

Аннотация

В данной статье на примере выставки-ярмарки, проходившей в Туркестане в 1913 году, высказываются мнения о программе и правилах проведения выставки-ярмарки.

Основные термины: выставка, ярмарка, правило, программа, секция, раста, фрукты, овощеводство, минеральные удобрения, машина, техника, комитет, премия, зерновые культуры, пчеловодство, рассада, питомник, хлопчатник, цветоводство, декоративное дерево, семеноводство, сельское хозяйство.

Annotation

In this article, on the example of the exhibition-fair held in Turkestan in 1913, opinions are expressed about the program and rules of the exhibition-fair.

Basic terms: exhibition, fair, rule, program, section, stall, fruit, vegetable, mineral fertilizers, machine, technique, committee, prize, grain crops, beekeeping, seedling, nursery, cotton seed, floriculture, ornamental tree, seed production, agriculture.

Turkiston o`lkasida ko`rgazma va yarmarkalar o`tkazish 1870 yilda boshlangan bo`lsada ularni tashkiliy jihatdan keng miqiyosda o`tkazish va ko`rgazmalarni uyushtiruvchi sanasi 1886 yil ko`zgi yarmarka bilan uzviy ravishda bog`liq. Turkiston qishloq xo`jaligi jamiyati (TQXJ) 1885 yilda tashkil topgan va



Turkistonda 1886 yil ko'zida o'tkazilgan ko'zgi ko'rgazma va yarmarkani uyushtirish bilan ushbu yo'nalishdagi faoliyatiga kirishgan edi. Jamiyatning mevachilik, sabzavotchilik, urug'chilik, asalarichilik tanlov, ko'rgazma-yarmarkalari asosan yilning sentyabr oyida tashkil etilgan. 1886 yil ko'zgi ko'rgazma-yarmarka 12-22 sentyabrda o'tkazilib, unda 9 ta bo'limda buyumlar va mahsulotlar namoyish etilgan bo'lsa, 1913 yilgi ko'rgazma-yarmarka 1-10 sentyabrda tashkil etilgan.¹ Ulardan ko'zlangan maqsad qishloq xo'jaligi tarmoqlari bilan aholini tanishtirish, dehqonchilik madaniyatini targ'ib qilish, ishlab chiqaruvchilar bilan savdogarlar va iste'molchilarni yaqinlashtirish, dehqonchilik, hunarmandchilik yangiliklarini joriy etish kabilar bo'lgan. Ushbu tadqiqotda yillar davomida diyarli o'zgarmay kelgan. 1913 yil sentyabr Toshkent ko'zgi ko'rgazma-yarmarkasi orqali fikr yuritiladi.

1913 yil sentyabr ko'rgazma-yarmarkasida bo'limlar namoyishi tashkil etilgan:

1. Mevachilik va uzumchilik; 2. Sabzavotchilik va tomarqa madaniy ekinlari; 3. Manzarali bog'dorchilik va gulchilik; 4. Vinochilik; 5. Meva va sabzovotlarga texnik ishlov berish; 6. Ko'chatxonalar va ko'chat o'tqazish; 7. Urug'chilik; 8. O'g'itlar; 9. Zararkunandalarga qarshi kurash; 10. Asalarichilik; 11. Umumiy bo'lim: mashinalar, mehnat qurollari, adabiyot, qo'llanma, kolleksiya, o'lka tabiatshunosligi tarixi, qishloq xo'jaligi tarixi² kabilarda maxsus rasta (pavilon)lar tashkil etilgan. Ko'rgazmani tashkil etish manzili, TQXJning shahar bog'i hisoblanib, uni ko'rgazma komiteti va bo'lim boshliqlari tomonidan uyushtirilgan. Ko'rgazmaga meva, sabzavot, poliz ekinlarining namunalari havaskor bog'bonlar, sanoat bog'larining egalari, savdogarlar, tadbirkorlar va ishbilormonlar, olib-sotarlar tomonidan taqdim etiladi.

Ko'rgazma-yarmarkada ishtirok etuvchilar namoyishga tavsiya etadigan mahsulotlarini joylardan temir yo'l orqali Toshkentga keltirishi, har ikki pud yuk uchun 1 rubl to'lashi belgilab qo'yilgan. Ko'rgazma-yarmarka belgilangan kunlarda soat 9:00 dan ochilib, kech 19:00 gacha davom etadi. Uning kechikkan ishtirokchilari ko'rgazma-yarmarka komitetining maxsus ruxsati bilan qatnashish vakolatini olishgan.

Ko'rgazma-yarmarkada g'oliblar oltin, kumush, bronza medallari, faxriy yorliq, faxriy xalat, Stanislov lentasi yer ishlari va dehqonchilik vazirligining 100 rubldan 1000 rublgacha pul mukofoti kibilari bilan taqdirlangan. Maxsus mukofotlash va taqdirlash komissiyasi tashkil etilgan. Ko'rgazma-yarmarkada mahsulotlar ikki

¹ O'zMA. I-103-fond, 1-ro'yat, 27-yig'ma jild, 1,2,3 varaqlar.

² Правила и программы выставки-ярмарки за 1913 год С.3



nusxada namoyish etilgan. Birinchi nusxasi ko'rgazma uchun bo'lsa, ikkinchisi mijozlarga sotilgan. Sotilgan mahsulotlarning 5 foizi Yer ishlari va Dehqonchilik vaziri tasarufidagi TQXJ hisobiga o'tkazilgan. Agar ko'rgazmada sotilishi mo'ljallangan tovarlar 3 kungacha xarid qilinmasa, Komitet qarori bilan TQXJ hisobiga o'tkazilgan.³

Ko'rgazma-yarmarkada namoyish qilinadigan mahsulotlar turiga qarab ular hajmi va miqdori belgilangan. Jumladan, mevalarning har bir navidan 10 donadan, uzum mevasidan 1 funt (449 gr), kichik mevalardan 2/1 funt, sotish va eksport uchun 2/1 pud (8 kg); yong'oqdan 2/1 funt ko'rgazma rastasidan joy olgan. Bu mevalar soha mirishkorlari mahsulotlari orasidan tanlab olingan.

Ko'rgazmada sabzivotlardan (sabzi, kartoshka, karam, pomidor, bodring va h.k)ning har biridan 10 dona don yoxud har bir navdan 3 donadon (masalan, o'sha katta turkistonda tarqalgan pomidorning 6 ta navidan 18 dona) namoyish etish tartibi belgilangan. Biroq ko'rgazmani uyushtirish va o'tkazish komitetining qarori bilan ushbu raqamlar o'zgartirilishi mumkin bo'lgan.

Gullar namoyishi 2 guruhdagi rastaga bo'linib, ochiq havodi va issiqxonada parvarishlangan gullardan iborat bo'lgan.

Gullar namoyishi quydagi kategoriyalardan amalga oshirilgan 1) Tabiiy gullar va gulsimon o'simliklar; 2) Piyozli gullar va quruq piyozli gullar; 3) Quritilgan, gerbariy qilingan gullar; 4) Buketlar va gullar uchun korzinalar; 5) Gulsimon.⁴

Gullarni namoyishi etish me'yori: kichik gullar har bir donasidan 5 nusxadan, katta butasimon gullardan 3 nusxadan, ko'rgazma uchun tanlangan. Gullar mahalliy, xorijiy tog'da o'sadigan gullar kabi guruhlarga ajratilgan. Eng oxirgi rastada botanik jihatdan hali nomi qo'lylmagan gullar joy olgan. Ularni xususiyatiga qarab nomlash, ayrim qaytlarda ko'rgazma jarayonida hal etilgan.

Vinochilik bo'limida vinoning va spirtli ichimliklarning oshxona vinosi, mustahkam vino, dissert vino, oq vino, qizil vino, uzum spirti va sirkasi, qo'lbola vino, konyak kabilar har biridan 3 butilka namoyish etilgan. Vinolarning har biri navidan va konyakdan 3 butilkadan, spirtidan 0,5 butilka ko'rgazmada belgilangan qoidaga ko'ra namoyish etilgan.

Konserva qilingan meva va sabzovatlar, murobbo malinirovat qilingan mevalardan 3 bonkadan ko'rgazmaga olib chiqish tartibi o'rnatilgan.

Mevali va manzarali daraxtlarning urug'i va ko'chatlari ham namoyish etilib, urug'liklardan 3 fut (54 gramm) ko'chatlardan (1 yillik olti oylik) har bog'lamida 10

³ Правила и программы выставки-ярмарки за 1913 год С.5-6

⁴ Правила и программы выставки-ярмарки за 1913 год С.7-8



donadan ko`rgazmada namoyish etish tartibi belgilangan. 1913 yil ko`rgazmasida ilk bor “Urug`chilik” bo`limi namoyishi yo`lga qo`yilganini alohida takidlash zarur. Ushbu bo`lim tomonidan meva, sabzovot, poliz, gul, butasimon, manzarali o`simliklar urug`lari bankalarda ko`rgazmada namoyish etilgan. Bundan tashqari saralab olingan urug`ni tozalash, saqlash dorilash, unga texnik ishlov berish, urug`chilik xo`jaligi diagrammasi va kartogrofiiyasi bilan bog`liq vositalar ham ko`rgazma rastalarida namoyish etilgan.

Urug`chilik bo`limida urug`larning mahalliy va xorijiy navlari namoyish etilgan. Ayniqsa, paxta o`simligi urug`larining har bir navidan 10 fut namoyish etilib, har bir urug` ma`lumotnomasi tayyorlanib, unda bir chanoqda paxta vazni, tana uzunligi va hajmi chigitlar soni, tolasizligi, oxirligi, kunjara, shuluxa berish foizi to`qimachilik sanoatidagi ahamiyati annatasiya tarzida yozib qo`yilgan.

Asalarichilik bo`limida asal navlari har bir, bonkada namoyish etilib, asalari turlari, ular nectar oladigan mevali, manzarali, butasimon ko`chatlar namunasi, asalari uchun xarajat va foyda haqida ma`lumot beruvchi tavsiyanomalar, asalari uyasi yashiklari namoyish etilgan.⁵

Umumiy bo`limda qishloq xo`jaligi mashinalari (ekinlari ekish, parvarishlash, yig`ishtirish funksiyalarini bajaradigan) mehnat qurollari (oddiy va murakkab), qishloq xo`jaligi tarmoqlari bo`yicha qo`llanma va kitoblar ham namoyishga olib chiqilgan.

Xullas, 1913 yilgi ko`rgazma-yarmarkada yaratgan o`n bitta bo`lim faoliyatini uyushtirish, ko`rgazmani uyushtirish jamiyati va mutassadilarn tomonidan katta tashkilotchilik, tashabbuskorlik, mehnat talab etgan.



⁵ Правила и программы выставки-ярмарки за 1913 год С.12-13